MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Islamova M.B.,Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi
Rahmonova M.H.,NavDU 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ahamyati va uning tarbiyaviy hamda inteliktual rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilinadi .Tanqidiy fikrlash bolaning mustaqil qaror qabul qilishi , muommolarga ijodiy yondashishi,axborotni tahlil qilish va muloqotda faol bo‘lishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, maktabgacha yoshdagi bolalar, tanqidiy tafakkur , ijodiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируется значение формирования критического мышления у детей дошкольного возраста, а также его роль в воспитательном и интеллектуальном развитии. Критическое мышление способствует принятию самостоятельных решений, творческому подходу к проблемам, анализу информации и активному участию в общении.

Ключевые слова: критическое мышление, дети дошкольного возраста, критическое мышление, творческое мышление.

Abstract: This article analyzes the importance of developing critical thinking in preschool children and its role in their educational and intellectual development. Critical thinking helps children make independent decisions, approach problems creatively, analyze information, and be active in communication.

Keywords: critical thinking, preschool children, critical thinking skills, creative thinking.

Hozirgi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida insonning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlay olish qobiliyati hayotiy zaruratga aylanmoqda. Ayniqsa, bu qobiliyatni shakllantirish jarayonini iloji boricha erta yoshdan, ya’ni maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlash nihoyatda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tabiati bilan qiziquvchan, o‘rganishga chanqoq va faol bo‘lishadi. Ularning tabiiy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, fikrlashni rag‘batlantirish va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish, kelgusida ular uchun muvaffaqiyatli o‘qish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish asosini yaratadi.

Tanqidiy fikrlash bu - fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi.[60]

A.Smirnov “Tanqidiy tafakkur tushunchasi - mustaqil, mantiqiy xatosiz fikrlash va fikr yuritish, turli fikrlardagi kuchlihamda zaif tomonlarni ko‘ra olish, ularni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatlarini o‘zida mujassam etadi” - deb hisoblaydi.[61]

Dots.F.O.Xodjiyevaning ta’riflashicha, “tanqidiy fikrlash – bilim o‘zlashtirishning eng yuqori darajasi bo‘lib, ushbu aqliy faoliyatda g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashtirish, konsentratsiya qilish hamda axborotlarni qayta tahlil etishga zamin yaratadi”.[62]

T.Xauchman “tanqidiy tafakkur bu - fikrlash faoliyatning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, har qanday masalalarni yechishdagi to‘g‘ri yo‘lni toppish

[60] Edward M. Glaser. «Defining Critical Thinking». The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking.

[61] Смирнов А. А. Избранные психологические трудь: 2 т./ Смирнов А. А. – М.; 1987.

[62] F.O.Xodjiyeva. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida). P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dessertatsiya. Toshkent-2008.

strategiyasidir, u gipotezalar, tahlillar, (axborotlarni ishlash, analitik, tekshirib ko‘rish, nazorat qilish, baholashga asoslangan) refleksiv ta’sirlarni o‘z ichiga oladi, turli xil fikrlarning barchasini qamragan holda o‘z xususiy pozitsiyasini namoyon qilish, o‘zining va boshqalarning faoliyatidagi natijalarga ob’ektiv baho bera olish ko‘nikmasi” - deb ta’riflaydi.[63]

Ma’lumki, bola 70 foiz ma’lumotlarni 5 yoshigacha bo‘lgan davr mobaynida oladi. Shuning uchun ham bugungi kunda maktabgacha yosh davridan boshlab, ularda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, muammolarni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur ko‘nikmaga aylanmoqda. Keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan bir qancha usullar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin: O‘yinlar va vazifalar, savol berish, muzokaralar va munozaralar, ijodiy faoliyat,kuzatish va tahlil,o‘z-o‘zini baholash.

O‘yinlar bolalar uchun eng tabiiy o‘rganish vositasidir. Ular orqali bola real hayotdagi vaziyatlarni modellashtirardi, muammolarni hal qilishni, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunishni o‘rganadi. Masalan, “Nima bo‘ldi?” o‘yinida bolalar bir voqea yoki holat haqida fikr yuritishadi: ular hodisaning sababini aniqlashga, oqibatini tahlil qilishga harakat qiladilar. Bu jarayonda ular o‘z fikrlarini izohlash, mantiqiybog‘lanishlarni aniqlash va tanqidiy yondashuvni rivohlantirishga intiladilar. Shuningdek, rolli o‘yinlar (“Do‘kon”, “Kasb-hunarlar”, “Sayohat”) ham bolalarda hayotiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va turli tuqtai nazarlarni tushunishga yordam beradi.

Bolalarga turli xil qiziqarli va o‘ziga xos vazifalarni topshirish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ularga mantiqiy jumboqlar, o‘xshashlik va farqlarni topish topshiriqlari, turli vaziyatlar uchun yechimlar ishlab chiqish kabi mashqlar berilishi mumkin. Oddiy hayotiy muammolarni hal qilish topshiriqlari orqali bola tafakkurini harakatga keltiradi, yangi g‘oyalarni ishlab chiqadi va mavjud bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi.

Savol berish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan savollar ularning mustaqil fikrlashini, mantiqiy mulohaza yuritishini va o‘z fikrini asoslab aytishni o‘rgatadi. Ayniqsa, “Nima uchun?”, “Agar … bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi ochiq turdagi savollar bolalarni chuqurroq o‘ylashga undaydi. Masalan, “Nima uchun quyosh chiqadi?”, “Qanday qilib daraxtlar o‘sadi?” kabi savollar orqali bola nafaqat eslab qolishga, balki sabablarni tushunishga va o‘z mulohazasini bildirishga harakat qiladi. Bu jarayon davomida bolalar o‘z tasavvurlarini kengaytiradi, bog‘lanishlarni anglaydi va savol-javob shaklida bilimlarini mustahkamlab boradi.

To‘g‘ri va maqsadga yo‘naltirilgan savollar bolalarning atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini oshiradi. Savol-javoblar natijasida bolalar o‘z atrofidagi hodisa va voqelarni kuzatishga, ularni tahlil qilishga va o‘z xulosalarini chiqarishga o‘rganadilar. Shuningdek, savol berish orqali tarbiyachi yoki o‘qituvchi bolaning

[63]. Хачумян Т. И. Понятие “ Критическое мышление” и его сущность в психолого-педагогической науке / Хачумян Т. И. // Теоретические вопросы культуры, образования и воспитания : сб. наук. Пр. Вып. 24, част 2. – Киев: Издательский центр КНЛУ, 2003.

qiziqishini oshiradi, uni faol fikrlashga jalb qiladi va mustaqil fikr yuritishga rag‘batlantiradi.

Bolalarni kichik guruhlarda muhokama qilishga undash. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kichik guruhda ishlash tajribasi ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda juda muhimdir. Guruhli muloqot jarayonida bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqalarning fikrlarini tinglash va ularning nuqtai nazarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Muhokamalar davomida bolaning fikri sinovdan o‘tadi: u o‘z mulohazasini asoslashga, misollar keltirishga va o‘z nuqtai nazarini boshqa bolalar bilan taqqoslashga majbur bo‘ladi. Munozara bolalar uchun o‘z fikrlarini himoya qilishni, asoslashtirishni vas hu bilan birga boshqalarning fikrlariga hurmat bilan qarashni o‘rgatadi. Munozara vaqtida bolaning o‘z fikrini bayon qilish ko‘nikmalari shakllanadi: u o‘z mulohazalarini aniqlik bilan yetkazishga harakat qiladi, dalillar keltiradi va boshqalarni tinglab, ularga mos ravishda javob qaytaradi. Bolalarni “To‘g‘ri” yoki “Noto‘g‘ri” nuqtai nazardan ko‘ra, “Sen nega shunday o‘ylaysan?” kabi savollar bilan rag‘batlantirish, ular orasida fikrlar xilma-xilligini qadrlashni o‘rgatadi. Shu orqali bolalar tanqidiy va tolerant fikrlash asoslarini o‘zlashtiradilar.

Rasm chizish, hikoya yozish va dramatizatsiya orqali fikr ifodalash: Ijodiy faoliyat tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda juda samarali vositasidir. Bolalar rasm chizish, hikoya tuzish yoki dramatik sahnalarni sahnalashtirish orqali o‘z ichki dunyosini ifodalaydi, o‘z fikrlarini tasviriy va og‘zaki shaklda bayon etishni o‘rganadi. Bu mashg‘ulotlar bolalarning faqat ijodiy emas, balki tanqidiy fikr yuritish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ijodiy ishni yaratish jarayonida bola o‘z tanlovini oqlashi, variantlar orasidan eng maqbulini tanlashi va natijani baholashi kerak bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ularni atrof-muhitni diqqat bilan kuzatishga undash juda muhimdir. Bola voqea-hodisalarga faqat tashqi tomondan qarabgina qolmasdan, ularning sababi va oqibatini tushunishga harakat qilishi kerak. Masalan, bolalar bilan daraxt barglarining ranglari o‘zgarishini kuzatish, qushlarning harakatlarini tahlil qilish yoki suvning turli haroratdagi holatini o‘rganish mumkin. Bu jarayonda bolalarga “Seningcha, nima uchun barglar sarg‘ayadi?”, “Suv nima uchun muzlaydi?” kabi savollar berish orqali ularning tafakkurini faol harakatga keltirish kerak.

Kuzatishdan keyin bolalar o‘z kuzatishlari haqida suhbatlashishlari, fikr almashishlari va xulosalar chiqarishlari lozim. Bu orqali ular o‘z ko‘rganlarini nafaqat qayta tasvirlash, balki tahlil qilish va baholashni ham o‘rganadilar. Shuningdek, bolalarga kuzatgan hodisalarning sabab va oqibatlarini aniqlash, ularni o‘z fikrlari bilan taqqoslash imkonini berish tanqidiy fikrlashni yanada mustahkamlaydi.

Bolalarga o‘z ishlarini baholash imkoniyatini berish: Tanqidiy fikrlashning yana bir muhim jihatlaridan biri – shaxsning o‘z fikr va faoliyatini tahlil qilish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko‘nikmani shakllantirish uchun ularga mustaqil ravishda o‘z ishlari – chizgan rasmlari, qurilgan konstruksiyalari, aytgan fikrlari yoki bajargan vazifalari ustidan fikr yuritish imkoniyatini berish zarur. Masalan, tarbiyachi bolaga “Senga bu rasmda nima yoqdi?” yoki “Bu topshiriqni bajarishda qiyinchilik bo‘ldimi?” kabi savollar orqali bolaning o‘z faoliyatini

baholashga yo‘l ochadi. Bu esa fikrlash chuqurligini oshiradi va o‘zini rivojlantirishga intilishga undaydi. Bola o‘z ishiga baho bera boshlaganidan boshlab, u o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishni o‘rganadi. Bu esa unda mas’uliyat hissini shakllantiradi. O‘z xatolarini tan olish va ularni tuzatish yo‘llarini izlash bola ongida ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqaradi.

Topshiriqni bajargandan so‘ng, bolalarga o‘zlariga stikerlar, ranglar yoki belgilash usuli orqali baho berishga ruxsat berish ularda o‘z-o‘zini anglash va baholashni qulay va tushunarli shaklda shakllantiradi. Bunday metodlar bola fikrlashida o‘zgarish yaratadi: u qilgan ishiga tanqidiy qaraydi, xatoni ko‘radi va eng asosiysi – uni qanday tuzatishni o‘rganadi.

Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo‘yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Maktabgacha yosh-bu bolada tafakkur, dunyoqarash va muloqot ko‘nikmalari shakillanadigan asosiy poydevor davridir. Tanqidiy fikrlash esa bolalarning faqatgina eslab qolish emas, balki tushunish, savol berish, tahlil qilish, faraz qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan fikrlash faoliyatidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli Farmoni.//https://lex.uz/ru/docs/-4545884

2. Qodirov, S. (2021). Oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy metodlari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 10(2), 15-18.

3. To‘laganov, M. (2020). Tanqidiy fikrlashning psixologik jihatlari. Toshkent: Ilmiy Nashr

4. Edward M. Glaser. «Defining Critical Thinking». The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking.

5. Смирнов А. А. Избранные психологические трудь: 2 т./ Смирнов А. А. – М.; 1987